

MUSTAQILLIK YILLARIDA ADLIYA VAZIRLIGI TARIXI

Jumanazarov Ixtiyor Jamoladdin o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346040>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining mustaqillik yillaridagi shakllanishi, faoliyat yo'nalishlari, islohotlar va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Davlat boshqaruvi va huquqiy tizimni takomillashtirishdagi roli, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlashdagi hissasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adliya vazirligi, huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi, mustaqillik, huquqiy tizim, qonunchilik, yuridik xizmat.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakatda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamli islohotlar boshlandi.

Ushbu jarayonlarda davlat boshqaruvi tizimini tubdan qayta tashkil qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Aynan shu muhim tarixiy bosqichda Adliya vazirligi yangi davrga qadam qo'ydi va mustaqil davlatning huquqiy siyosatini shakllantirishda markaziy institutlardan biriga aylandi.

Adliya tizimi mustaqillikdan so'ng jadal rivojlanib, huquqiy normativ hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish, qonunchilikni tizimlashtirish, yuridik xizmatlar ko'rsatish, fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish, notariat faoliyatini tashkil qilish, davlat xizmatlarini ko'rsatishni raqamlashtirish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib bordi. Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida huquqiy davlat qurish tamoyillari mustahkamlanib, yuridik xizmatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining mustaqillik yillaridagi rivojlanish yo'li, islohotlar bosqichlari, institutsional o'zgarishlar va ularning jamiyat hayotiga ta'siri tizimli tahlil qilinadi. Shu orqali, mamlakatda huquqiy tizimni takomillashtirishdagi Adliya vazirligining o'rni va roli ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlat boshqaruvi tizimi tubdan isloh qilinishi zarurati tug'ildi. Ayniqsa huquqiy davlat barpo etish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish kabi vazifalar markaziy o'ringa chiqdi. Shu jarayonda Adliya vazirligi O'zbekistonning yangi siyosiy tizimida eng muhim institutlardan biri sifatida shakllandi. Mustaqillik yillarida Adliya vazirligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, balki ularni ekspertizadan o'tkazish, qonun ijodkorligi jarayonida muvofiqlikni ta'minlash, yuridik xizmatlar sifatini oshirish, notarial va fuqarolik holati dalolatnomalarini yuritish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini rivojlantirishda ham faol ishtirok etdi.

1991-yildan boshlab Adliya vazirligi faoliyati yangi bosqichga kirdi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari belgilandi.

Adliya vazirligi bu prinsiplarni amaliyotga tadbqiq etish yo'lida normativ-huquqiy baza yaratishda asosiy rol ni bajardi.

Shu davrdan e'tiboran vazirlik tomonidan turli qonunlar, kodekslar, prezident farmonlari va hukumat qarorlarini ishlab chiqishda muhim tashabbuskor sifatida qatnashildi. 1990-yillarning oxiriga kelib, yuridik xizmatlarni markazlashtirish, davlat organlarining huquqiy bo'limlarini mustahkamlash bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilindi.

2000-yillardan boshlab Adliya vazirligi faoliyatida institutsional islohotlar boshlanganini ko'rish mumkin. Jumladan, yuridik xizmat to'g'risida qonun, normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartiblari va ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi shakllantirildi. Hududiy adliya organlari faoliyati kuchaytirildi, ularga yuridik yordam, notarial nazorat, FHDYO bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatlari berildi. Ushbu yillarda Adliya vazirligi faqat huquqiy hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi yoki nazorat qiluvchi organ emas, balki davlatning huquqiy siyosatini shakllantiruvchi va tartibga soluvchi strategik markaz sifatida ko'zga tashlana boshladi.

2016-yildan so'ng mamlakatda boshlanayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida Adliya vazirligi faoliyatida yangi sahifa ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan huquqiy davlat barpo etish konsepsiyasi yangicha mazmunga ega bo'lib, Adliya vazirligi unga asosiy ijrochi va koordinatsion organ sifatida jalb qilindi. 2017-yilda Adliya vazirligi tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi, uning vakolatlari kengaytirildi, tarkibida bir qator yangi boshqarmalar va agentliklar, jumladan, Davlat xizmatlari agentligi va Huquqiy siyosat bosh boshqarmasi tashkil etildi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ochiq muhokamasi, yuridik huquqiy ekspertiza tizimining raqamlashtirilishi, fuqarolarga elektron huquqiy xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Notariat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xususiy notariat instituti joriy qilinib, notarial xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligi oshirildi. FHDYO tizimi ham zamonaviylashtirilib, elektron holatga o'tkazilmoqda. Bunda nafaqat texnik infratuzilma, balki huquqiy va tashkiliy mexanizmlar ham tubdan qayta ko'rib chiqildi. "Huquqiy axborot" tizimi, "Lex.uz" portali, "Adliya" mobil ilovasi kabi raqamli platformalar orqali fuqarolarga qonunchilik hujjatlari, yuridik maslahatlar va onlayn xizmatlar taqdim etilmoqda. Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, aholining yuridik ongini shakllantirish maqsadida ommaviy huquqiy targ'ibot ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda Adliya vazirligi davlat siyosatini huquqiy jihatdan ta'minlash, inson huquqlarini kafolatlash va zamonaviy yuridik xizmatlar bozorini shakllantirish bo'yicha kompleks faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Adliya vazirligiga tegishli vazifalar alohida belgilab berilgan. Ular orasida huquqiy davlat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, qonunchilikni tizimlashtirish, sohalar bo'yicha kodekslar va qonunlarni ishlab chiqish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni joriy qilish muhim o'rin tutadi.

Adliya vazirligi mustaqillik yillarida nafaqat davlat huquqiy siyosatining markaziy ijrochi organi sifatida shakllandi, balki jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda, inson huquqlarini himoya qilishda, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimiga o'tishda muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Adliya vazirligi faoliyatidagi izchil va tizimli islohotlar uning davlat huquqiy siyosatidagi o'rnini har yili mustahkamlamoqda.

Xulosa

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida tub burilish davrini boshlab berdi. Ushbu jarayonda Adliya vazirligi davlat boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida huquqiy islohotlarning markazida bo'ldi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab vazirlik tomonidan huquqiy bazani yaratish, qonunchilikni tizimlashtirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Adliya vazirligi faoliyatida 1990-yillarda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va davlat boshqaruvi tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash asosiy maqsad sifatida belgilangan bo'lsa, 2000-yillarga kelib institutsional islohotlar orqali tizimning tashkiliy va funksional asoslari rivojlantirildi. Yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish, notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish, huquqiy ekspertiza jarayonini qayta ko'rib chiqish kabi chora-tadbirlar ushbu davrda muhim ahamiyat kasb etdi.

2016-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida Adliya vazirligining vakolatlari yanada kengaytirilib, huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda strategik organ sifatidagi o'rni mustahkamlandi. Raqamlashtirish jarayonlari, elektron davlat xizmatlarining joriy etilishi, aholiga ko'rsatiladigan yuridik xizmatlar sifati va samaradorligining oshishi vazirlik faoliyatining yangi bosqichini boshlab berdi.

Xulosa qilib aytganda, Adliya vazirligi mustaqillik yillarida huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash, qonunchilikni rivojlantirish va jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Vazirlik tomonidan amalga oshirilgan tizimli islohotlar mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish jarayonlarida muhim omil bo'ldi.

Mamlakatda davom etayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida Adliya vazirligi zimmasidagi vazifalar yanada kengayib, huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish va yuridik xizmatlar sifatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017). "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida". respublika.uz
3. Tursunov, B. (2021). O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar va Adliya tizimi. Toshkent: "Yuridik adabiyot".
4. Rashidov, A. (2018). Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati: Adliya vazirligining o'rni. Toshkent: Adliya nashriyoti.
5. Adliya vazirligi rasmiy sayti – <https://www.minjust.uz>